

FUQAROLIK HUQUQIDA SPORTCHINI VAQTINCHA IJARAGA OLISH SHARTNOMASI

Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich
Toshkent davlat yuridik universiteti doktranti
Gmail: Qurvonaliyevich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchini vaqtincha ijaraga olish (transfer) shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Muallif sport transferi institutining shartnomaviy-huquqiy mohiyatini, mehnat va fuqarolik huquqlari o'rtasidagi institutsional chegaralarni hamda xalqaro huquqiy tajribani tahlil etadi. Tadqiqot natijasida sport transferi "shaxsiylashtirilgan xizmatni vaqtincha o'tkazish to'g'risidagi sui generis shartnoma" ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sport transferi, fuqarolik huquqi, shartnomaviy erkinlik, xizmatni o'tkazish, majburiyat, sportchi.

Sportchini vaqtincha ijaraga olish shartnomasi ko'p hollarda sport huquqi doirasida o'rganilsada, uning huquqiy tabiati, asosan, fuqarolik huquqi institutlariga tayanadi. Chunki bu bitim ikki mustaqil huquq subyekti klub o'rtasida tuziladi va ularning huquqiy aloqasi mulk va xizmat almashinuvi xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababdan, sport transferi "sportchi mehnatining vaqtincha o'tkazilishi" dan tashqari, xizmatni vaqtincha o'tkazishning fuqarolik-huquqiy ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Rossiyalik tadqiqotchi S. V. Kataseva bu holatni "xizmatni vaqtincha o'tkazishning shaxsiylashtirilgan turi" deb ataydi, chunki sportchi nafaqat iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan resurs, balki shaxsiy mehnat bilan bog'liq individual subyektdir³³. Bu yondashuvdan kelib chiqib, sport transferi — ikkilik huquqiy tabiatga ega: mehnat-huquqiy jihatdan sportchining ish joyi vaqtincha o'zgaradi, fuqarolik-huquqiy jihatdan esa ikki klub o'rtasida haq evaziga xizmatni vaqtincha o'tkazish to'g'risida shartnoma vujudga keladi. Fuqarolik kodeksining

354-moddasida shartnomaviy erkinlik prinsipi belgilangan: taraflar qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shartnomani tuzish huquqiga ega. Shu asosda klublar o'zaro sportchining xizmatidan foydalanish huquqini vaqtincha o'tkazish to'g'risida bitim tuzadi.

E. V. Sinyakova ta'kidlaganidek, sport transferi "majburiyatning o'zgarishi orqali yuzaga keluvchi xizmatni topshirish shaklidir".³⁴ Ya'ni, bir klub sportchi bilan tuzilgan mehnat

³³ Kataseva S. V. *Pravovaya priroda transfernykh kontraktov na primere RFPL* // Cyberleninka.ru, 2020.

³⁴ Sinyakova E. V. *Grazhdansko-pravovye osnovy sportivnogo transfera*. – M.: Yurayt, 2019.

shartnomasiga asoslanib, ikkinchi klubga sportchining xizmatini ma’lum muddatga va haq evaziga foydalanish huquqini beradi.

Bunda sportchi fuqarolik-huquqiy munosabatning bevosita subyekti emas, balki predmet bilan bog‘liq uchinchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Shu sababli transfer shartnomasi shaxsiylashtirilgan xizmatni o‘tkazish to‘g‘risidagi nomuvofiq shartnoma (sui generis) hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 535-moddasiga ko‘ra, ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun beradi. Biroq sportchi mol-mulk emas, shaxsiy mehnat kuchiga ega shaxsdir. Shu bois sport transferida “ijara” atamasi metaforik xarakterga ega bo‘lib, u mulkiy emas, balki shaxsiy xizmatning vaqtinchalik o‘tkazilishini bildiradi.

R. Parrish va K. Foster bu farqni quyidagicha tushuntiradi. Ularning fikricha, “sport shartnomalari o‘z mohiyatiga ko‘ra iqtisodiy aktivlar bilan bog‘liq bo‘lsada, ularning obyekti inson mehnati bo‘lgani uchun, ular “xizmatlar muomalasining maxsus turi” sifatida baholanishi lozim”³⁵. Demak, sportchining vaqtinchalik o‘tkazilishi mulkni emas, xizmatni ijaraga berish bo‘lib, u fuqarolik huquqining xizmat ko‘rsatish, majburiyat va muomala subyekti haqidagi institutlari bilan uyg‘unlashadi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 503-moddasida sportchining vaqtinchalik boshqa ish beruvchiga o‘tishi mumkinligi nazarda tutilgan. Ammo mazkur norma transfering faqat mehnat-huquqiy tomonini tartibga soladi. Fuqarolik-huquqiy jihatdan esa, klub o‘z mulkiy huquqini (sportchi bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan xizmatdan foydalanish huquqini) vaqtinchalik boshqa klubga o‘tkazadi. Shuning uchun transfer bitimlari ikki huquq tarmog‘i o‘rtasidagi “ko‘prik” rolini bajaradi. Shu holatni A. A. Dolinskaya quyidagicha izohlaydi: “transfer kontrakti bu mehnat shartnomasi asosidagi xizmatdan foydalanish huquqining fuqarolik-huquqiy o‘tkazilishi”³⁶. FIFAning Regulations on the Status and Transfer of Players (2023) hujjatida transfer shartnomasining asosiy prinsiplari — shartnomaga sodiqlik, sportchi roziligi va moliyaviy shaffoflik belgilangan. Bu normalar fuqarolik huquqida mavjud bo‘lgan shartnomaviy erkinlik, majburiyatni bajarish va haqiqat prinsiplari bilan to‘la mos tushadi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi sud amaliyotida (masalan, Bosman v. Union Royale Belge des Sociétés de Football Association, 1995) transfer tizimi fuqarolik erkinliklari va xizmat ko‘rsatish erkinligi bilan bog‘lanib tahlil qilingan. Bu yondashuv sport transferini fuqarolik-huquqiy muomala obyekti sifatida talqin etishning nazariy asosini mustahkamlaydi.

³⁵ (Parrish & Miettinen, *The Sporting Exception in EU Law*, 2008; Foster, *Professional Sports and the Law*, 2019)

³⁶ Dolinskaya A. A. Sportivnoe pravo: doktrinalnye osnovy. — Moskva, 2021

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Катасева С. В. Правовая природа трансферных контрактов на примере РФПЛ // *Научный вестник Московского университета МВД России*. – 2020. – №4.
 2. Синякова Е. В. Гражданско-правовые основы спортивного трансфера. – М.: Юрайт, 2019.
 3. Parrish R., Miettinen S. *The Sporting Exception in European Union Law*. – The Hague: T.M.C. Asser Press, 2008.
 4. Долинская А. А. *Спортивное право: доктринальные основы*. – Москва: Норма, 2021.
- .